

ADABIYOT O'QITISH- SAN'AT, ADABIYOT O'QITUVCHISI – SAN'ATKOR

**Ozoda Shukurboyeva Nasriddin qizi**

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti "O'zbek va rus tillar"  
kafedrasida o'qituvchisi.*

*Maqolada adabiyot fanini samarali o'qitishda hamda adabiyot darslarini tashkil etishda nimalarga ahamiyat berish kerakligi haqida fikr yuritilgan. Har tomonlama yetuk, milliy-ma'naviy jihatdan mukammal, komil insonni tarbiyalashda adabiyot darslarining ahamiyati ko'rsatib berilgan.*

**Kalit so'zlari:** *"Qiyoslash" metodi, adabiyot darslari, darsliklar, adabiyot o'qitish*

Adabiy jarayonda yaratilgan asarlar ta'limiy-tarbiyaviy, ma'naviy-axloqiy jihatdan qanchalik mukammal bo'lsin, u zerikarli va yaroqsiz metodlar yordamida o'qitilsa, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Fan-texnika kundan-kunga rivojlanib borayotgan bir davrda, ta'lim muassasalarida adabiyot fanini o'qitishni san'at, adabiyot o'qituvchisini san'atkor darajasiga chiqarish, zamon bilan hamnafas tarzda adabiyot o'qitishning yangi usul va metodlarini kashf qilish, har tomonlama yetuk, milliy-ma'naviy jihatdan mukammal, komil insonni tarbiyalashda yangicha izlanishlarni talab qiladi.

O'qituvchiga o'z tenglari orqali ta'sir etish yaxshi natija beradi. Shuning uchun u adabiyot darslarida o'zbek va jahon bolalar adabiyoti namunalari bilan tanishar ekan, unda o'zi tengi bolani ko'radi, u bilan o'zini solishtiradi, yaxshi jihatlarni o'zlashtirib, o'zidagi yomon tomonlarini to'g'irlashga harakat qiladi. Umumta'lim darsliklarida esa mana shunday o'zbek va jahon bolalar adabiyoti namunalari talaygina. Ularni samarali o'rgatish jarayonida o'qituvchilarda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, olam va inson tabiatini anglash, kitobga mehr tuyg'usi shakllanadi.

Bugungi kunda kitobxonlik madaniyatini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masaladir. Bolalarni hayotning har qanday muammosi oldida dovdirab qolmay, unga o'z yechimini topa oladigan shaxs sifatida tarbiyalashda, shuningdek, bilim, malaka, ko'nikmalarini kundalik hayotda ham qo'llay olishida ta'lim tizimida adabiyot darslarini yangicha uslubda tashkil etishning ahamiyati kattadir.

Biz bolani badiiy adabiyotga qiziqtirish yo'llari haqida ko'p va xo'p gapiramiz. Ammo qiziqtirish yo'llari haqida gapirishdan avval bolani kitobdan bezdiruvchi tomonlarga ham to'xtalib o'tsak:

1. Ta'lim muassasalarida har o'quv yilida har xil adabiyot o'qituvchisining belgilanishi, ya'ni tez-tez almashishi.

2. Maktabdagi kutubxonachining kitoblarini qizg'anishi, uni avaylab bolalarga bermasligi, qo'polligi, tersligi yoki kitobga targ'ib qilishda tajribasizligi;

3. O'quvchilarning mustaqil o'qishi uchun o'zbek va jahon bolalar adabiyoti namunalarini ota-ona tomonidan olib berilmasligi yoki audio, videomateriallaridan ham foydalanish malakasining shakllanmaganligi;

4. Adabiyot o'qituvchisining nutqi ravon, ovozi yoqimli emasligi yoki adabiyotni nima ekanligini hali o'zi yaxshi anglab yetmaganligi, tajribasizligi;

5. Sinfda badiiy adabiyot o'qimaydigan, tarbiyasi yomon bolalarning ko'pligi.

6. Bolalarni adabiyotning jonli ko'rinishi bo'lmish teatrlarga olib borilmasligi yoki oilada virtual olamga haddan ziyod berilganlik kabilar. Yuqoridagi muammolarga yana ko'plab misollar keltirishim mumkin. Ammo oila va ta'lim tizimida mana shunday muammolarni chetlab o'tmaslik, kitobxon, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan, kompetensiyaviy ko'nikmalari rivojlangan shaxsni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumta'lim maktablirimizda adabiyot darslarining sifatini oshirishda e'tibor berishimiz kerak bo'lgan o'rinlar:

1. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti namunalarini darslikka kiritishda yoki ularni mustaqil mutolaa qilish uchun tavsiya etishda, albatta, bolalarning psixofiziologik va yosh xususiyatini inobatga olish lozim. Deylik, 5-sinf o'quvchisi 10-sinf yoshidagi o'quvchiga mo'ljallangan asarni yaxshi tushunmaydi;

2. Maktab darsliklarda o'zbek va jahon adabiyoti namunalarini emas, o'zbek va jahon bolalar adabiyoti namunalarini ko'paytirish muhim;

3. O'quv dasturlari va darsliklari mazmuniga turli janr va turli mavzudagi jahon bolalar adabiyoti namunalarining kiritilishi o'zbek adabiyotida ko'p o'rganilmagan ba'zi janrlar yoki yo'nalishlar bilan yaqindan tanishtirishning optimal usullarini taqozo etadi hamda o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Jumladan, jahon adabiyotidan hozirgi paytda rivojlanib borayotgan yangi lirik va dramatik turdagi asarlarni ham darsliklarga kiritish lozim.

4. O'quvchini o'zbek va jahon bolalar adabiyotiga yanada qiziqtirish uchun darslarda o'zbek va jahon bolalar adabiyoti namunalarining audio,

video ko'rinishlarini ham qo'llash, o'quvchilarga o'qigan asarlari yuzasidan taqdimotlar, senariylar, sahna ko'rinishlari tayyorlash, sevgisiga loyiq bo'lgan yoki nafratiga sabab bo'luvchi asar qahramonlariga maktub yozishni uyga vazifa sifatida berish;

5. Maktablarda adabiyot o'qituvchisini har o'quv yilida har xilcha yangi sinfga almashtirib qo'ymasdan, eski sinfini mukammal qilib bitirtirib berishiga imkon berish lozimdir. Ya'ni bir sinfni 5-sinfdan to 9, 11-sinfgacha bir adabiyot o'qituvchisi o'qitishi;

6. Umumta'lim maktablarida jahon bolalar adiblari ijodini o'qitishda ta'lim oluvchilar jahon bolalar adabiyoti durdonlarining ona tilidagi tarjimalari bilan muntazam tanishib borishlari ularning turli xalqlar milliy xususiyatlari o'quvchilar o'sha xalq haqidagi tasavvurni kengaytirib, dunyoqarashini boyitadi,

7. Adabiyot darsliklarida savol-topshiriqlar o'quvchilarda badiiy-estetik didni, tafakkurni hamda mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradigan darajada tuzilishini ta'minlash kabi masalalarga e'tibor qaratish adabiyot fanidan ko'zlangan maqsadga erishishga olib keladi.

O'quvchiga adabiyot darslarida jahon bolalar adabiyotini o'rganish jarayonida o'zga yurtdagi o'ziga deyarli tengdosh, muhimi bola bo'lgan qahramonning ruhiy kechinmalarini kuzatish imkoniyati yaratiladi. Turli millatga mansub bolalarning intilishidagi mushtaraklikni tadqiq etishga yo'naltiriladi.

O'zbek va jahon bolalar adabiyoti an'analarini qiyosan o'rganish o'quvchilarda har ikki olam ijodkorlarini inson ruhiyati, tafakkurini yangilash va yuksaklikka ko'tarish maqsadi birlashtirib turishini anglashlariga xizmat qiladi, turli iste'dodlar yoxud turfa yo'nalishlarning inson muammosini qay darajada tadqiq etganiga guvoh bo'ladi. Qiyoslash metodi asar muallifi mahoratini, iste'dodini yaqqol ko'rsatib beradi. Shuningdek, ta'lim oluvchilar qiyoslanayotgan asarlarda keskin farqlanuvchi jihatlar, asosan, millat psixologiyasida ko'rinishi, bunda axloqiy-estetik, oilaviy-maishiy masalalar atroflicha qamrab olinganligini tushunishlarida samarali ekanligini ta'kidlash mumkin. Adabiy ta'limda o'zbek va jahon bolalar adabiyotini qiyoslab o'rganishda noan'anaviy ta'lim metodlari va texnologiyalarnining samarali qo'llanishi an'anaviy darsning samarasidan ko'ra ancha sezilarli natija kasb etadi. Chunki, o'quvchida turli xil psixologik jarayonlar kechadigan davrda uning yoshiga, fikr doirasiga mos keladigan metod va texnologiyani to'g'ri tanlagan holda dars jarayonini tashkillashtirsak bu bolada fanga bo'lgan qiziqishini orttiradi hamda darsdan ko'zlangan natijaga erishiladi.

O'quvchilarni asar voqealari ichida yashashlariga, badiiy asarni shunchaki bayon qilmay, uni tom ma'noda uqib olish, qahramonlari bilan birga nafas olishlariga, badiiy asar bag'ridan unib chiqqan ma'naviy ozuqadan bahramand bo'lishlariga, badiiy asar o'qish va uqish malakasini shakllantirishga yaxshi tashkillashtirilgan adabiyot darslarigina xizmat qiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning mavjud holati muammoga doir ilmiy-metodik va didaktik ta'minotni xalqaro ta'lim standartlari talablari darajasida takomillashtirish, uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga amal qilish orqali o'quvchilarning turli xalqlar adabiyotidagi ta'sir va talqin, tarixiy haqiqat va badiiy to'qima, ijodkor konsepsiyasidagi badiiy yaxlitlik, ijtimoiy muammolar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini tushunishlariga zamin yaratildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalashda hamda ularda umumiy o'rta ta'limning malaka talablarini, adabiyotga oid kompetensiyalarni shakllantirishda, o'quvchilarning adabiy-estetik didini, ma'naviy-axloqiy dunyosini rivojlantirishda adabiyot darslarini to'g'ri tashkil etishning, adabiyot o'qitishning ahamiyati cheksizdir. Shuningdek, bu jarayonning yaxshi yo'lga qo'yilgani o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtiradi, ularda mustaqil hamda obrazli fikrlashga doir bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantiradi.